

Boltayeva Feruza A'zam qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

feruzaboltayeva16@gmail.com

+998915052794

UDK: 373.211.24

**KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA REFLEKSIV
FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHDA KVEST TEXNOLOGIYASIDAN
RIVOJLANISH MARKAZLARIDA FOYDALANISH**

Annotatsiya. Maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv faoliyatni shakllantirishda kvest texnologiyasidan rivojlanish markazlarida foydalanish yuzasidan tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shaxsda refleksiv faoliyatni rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar mazmuni, rivojlanish markazlarida kvest texnologiyasini qo'llashga qaratilgan faoliyatlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kvest usulidagi o'yinlarni qo'llash imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Refleksiv faoliyat, kvest loyiha, jumboq, kognitiv rivojlanish, rivojlanish markazlari, "Men" konsepsiyasi, o'yin, tadqiqiy faoliyat.

Болтаева Феруза Азам кизи

Базовый докторант Наманганского государственного университета

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КВЕСТ-ТЕХНОЛОГИИ В ЦЕНТРАХ
РАЗВИТИЯ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ РЕФЛЕКСИВНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО
ВОЗРАСТА**

Абстрактный. В статье представлены аналитические данные по использованию квест-технологии в центрах развития для формирования рефлексивной деятельности у детей старшего дошкольного возраста. Представлено содержание научных исследований, связанных с развитием рефлексивной активности личности, а также рекомендации по организации

мероприятий, направленных на использование квест-технологий в центрах развития. Обсуждались возможности использования квест-игр для детей дошкольного возраста.

Ключевые слова. Рефлексивная деятельность, квест-проект, головоломка, познавательное развитие, центры развития, понятие «Я», игра, исследовательская деятельность.

Boltayeva Feruza A'zam kizi

PhD student at Namangan State University

USE OF QUEST TECHNOLOGY IN DEVELOPMENT CENTERS IN FORMING REFLECTIVE ACTIVITY IN CHILDREN OF SENIOR PRESCHOOL AGE

Abstract. The article presents analytical data on the use of quest technology in development centers in the formation of reflective activity in older preschool children. The content of scientific research related to the development of reflective activity in the individual, recommendations for organizing activities aimed at using quest technology in development centers are given. The possibilities of using quest games for preschool children are discussed.

Keywords. Reflexive activity, quest project, puzzle, cognitive development, development centers, the concept of "I", game, research activity.

KIRISH

Bola rivojlanishi tezkor sur'atlarda davom etuvchi jarayon hisoblanadi. Maktabgacha yosh bolaning ham jismonan va ham ruhan kamolotida muhim davr sifatida alohida yoshga xos yondashuvlarni talab qiladi. o'yin mazkur yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida har bir faoliyat mazmunini o'yin asosida tashkil qilishga urinish bolalar tabiatiga xos hisoblanadi. Rivojlanish oddiydan murakkabga tomon harakatlanuvchi jarayon hisoblanadi. Shu bois bola rivojlanishini ushbu tamoyil negizida amalga oshirish talab etiladi. XXI asrda axborot almashinuvidagi yuqori tezlik yuzaga kelganligi sababli bu bolalar

rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Akseleratsiyaning yosharishi (miyaning analitik imkoniyatlari) kuzatilayotgan va alfa avlod deb atalinayotgan bugungi kun bolalari ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor dolzarb ilmiy izlanishlar obyektiga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 8 mayda qabul qilingan PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish bu yo'nalishdagi vazifalardan biri sifatida keltirildi.[1] Qaror e'lon qilingan yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyatini rivojlanish markazlarida tashkil qilish yo'lga qo'yildi.

Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi. Guruh xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik joylarga ajratish tavsiya etiladi. [2]

MTTlarda yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz to'laqonli ta'lim faoliyatini tashkil etish mumkin emas. Axir, uning asosiy poydevori - bolalar ta'lim oladigan "Rivojlanish markazlari"dir. Maktabgacha yoshdagi guruhda subyektiv rivojlanish muhitini tashkil qilish lozim.[3]

Garchi rivojlanish markazlarida bolalarda refleksiv faoliyatni rivojlanishi masalasi bo'yicha ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lmasada, shaxsda refleksiv jarayonlar va refleksiya borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, uning inson kognitiv rivojlanishidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Shaxsda refleksiv faoliyatni nazariy tafakkur bilan bog'liq holda A.V.Korjuev, V.A.Popkov, Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya; qo'shma harakatlar va ularni muvofiqlashtirish asoslarini tushunish zarurati bilan bog'liq aloqa va hamkorlik jarayonlarini o'rganishda V.S.Muxina, T.V.Maxova; yosh avlodlarni shakllantirish, tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash muammosi bilan bog'liq shaxsning o'z-o'zini ongini o'rganishda A.V.Xutorskoy, G.Yu.Ksenzova, G.K.Selevko va boshqalar o'rganib chiqdilar.

Pedagogikada refleksiyani ko'plab olimlar o'rgangan. Ammo ularning barchasi o'qituvchining o'quvchilarga ta'sirining samaradorligi refleksiv jarayonlarning faollashuvi tufayli ortishiga rozi bo'ladilar", - deb ta'kidlaydi G.P.Shchedrovskiy refleksiyani jarayon va faoliyatning o'ziga xos tarkibi sifatida "faoliyat tabiiy rivojlanishining" mexanizmi va qonuniyati sifatida ifodalaydi. Shuningdek, "u faoliyatni qayta ishlab chiqarish jarayoni va mexanizmi" ekanligini ta'kidlaydi.[4] Ta'limdagi aks ettirish - bu ta'lim sub'ektining o'z faoliyatini anglashning fikrlashfaoliyati yoki hissiy tajribali jarayoni (A.V. Xutorskoy)[5]

V.V.Davidov ushbu tushunchani faoliyat nuqtai nazaridan ko'rib, refleksiya sub'yektning faoliyat vositalari va asoslarini bilishi deb hisoblaydi.[6] V.A. Slasteninning fikriga ko'ra, quyidagi ta'rifni topish mumkin: "Reflektiv xulosalar, umumlashmalar, o'xshashliklar, taqqoslashlar va baholashlar, shuningdek, tajribalar, eslash va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, talqin qilish, tahlil qilish, e'tiqodlarga murojaat qilish, harakat, muhokama yoki baholash"[4]

I.N.Semenov va S.Yu.Stepanov psixologiyada aniq-ekspremmental ishlariga ahamiyat berib, ularning funksiyalariga muvofiq aks ettirishning to'rt turi - intellektual, shaxsiy, kommunikativ, kooperativni aniqladi:[7]

Refleksiv faoliyat psixologik nuqtai-nazardan ko'p tomonlama o'rganib chiqilgan bo'lsada, ushbu tadqiqotlarda shaxsga nisbatan yondashuv ustun turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxs sifatidagi rivojlanish bosqichiga yetmaganligi sababli ushbu yosh davridagi bolalarda refleksiv faoliyatni shakllanishi va

rivojlanishini aniqlash va rivojlantirish usullarini ishlab chiqish yangi tadqiqiy faoliyatni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning erkin va mustaqil faoliyati rivojlanish markazlarida amalga oshirishini hisobga oladigan bo'lsak, markazlarda tashkil etiladigan ta'limiy-tarbiyaviy xarakterdagi o'yinlar mazmunini takomillashtirish lozimdir. Bugungi kunda foydalanilayotgan turli yo'nalishdagi o'yinlar mazmuni e'tiborga olinsa, ularda asosan bolalar vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Pedagoglar rivojlanish sohalari bo'yicha har bir bolaning rivojlanish darajasini to'g'ri tahlil qilgan holda o'zining ta'limiy yondashuvini amalga oshirishi zarur. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining aynan qaysi yondashuv bolalarda "Men" konsepsiyasi (Refleksiya bu o'zi haqidagi anglangan tasavvurlar sifatida talqin etilsa)ni rivojlantirishda samaraliroq ahamiyat kasb etishini aniqlash jarayonida "Kvest" yo'nalishidagi o'yin usullari e'tiborimizni jalb etdi.

MUHOKAMALAR

Ta'lim kvestlari loyiha faoliyatini o'z ichiga oladi. Kvest - loyiha faoliyati, dizayn usuli va o'yin texnologiyasi sinteziga asoslangan, sarguzasht yoki o'yin bilan bog'liq doimiy, maqsadli qidiruvdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kvest loyihalarini qo'llash muvaffaqiyatli sanaladi. Kvest texnologiyasining afzalligi shundaki bu - faol o'qitish usullaridan foydalanish sifatida namoyon bo'ladi va bolani natijaga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Kvest – ta'limiy faoliyat uchun ham, guruhli qiziqarli o'yin uchun ham, individual ish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunday qidiruv loyihasi ustida ishlash jarayonida bola real voqe'liklarni tushunadi, muayyan vaziyatlarda yashaydi, hodisalarga chuqur kirib borish, yangi jarayonlar va ob'ektlarni qurishda ishtirok etadi.

Axborot faoliyati nuqtai nazaridan, kvest loyihasi ustida ishlashda uning ishtirokchisi ma'lumotni qidirish, tahlil qilish ko'nikmalarini, taqqoslash asosida yangi ma'lumotlarni saqlash, uzatish, taqqoslash va sintez qilish qobiliyatini talab qiladi. Bu esa bolaning o'z imkoniyatlariga nazar solishga va cheklangan

imkoniyatlarini rivojlantirish usullarini izlab topishni taqozo etadi. Kvest loyihasi ishtirokchidan o'z faoliyatini tahlil qilishni, qaysi xatti-harakatlari unga muvaffaqiyatsizlikni keltirib chiqarayotganligini his qilgan holda o'zining imkoniyatlarini oshirishga intilishni yuzaga kelishi orqali bolaning refleksiv rivojlanishini ta'minlaydi. Rivojlanish markazlarida kvest loyihasini quyidagicha yaratib borish mumkin:

Til va nutq markazi bolalarda savodxonlik va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi muhit sanalganligi bois kvest loyihasini rejalashtirishda umumiy maqsadga erishish darajasi aniqlanishi lozim. Topshiriqlar ketma-ketligi boladan savodga yoki nutqqa oid vazifani bajarishga yo'naltirilishi mumkin. Misol uchun maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan quyidagi kvest o'yinidan foydalanish mumkin: magnit doskasiga bir nechta rasmlarni ilgan holda, bolalarga rasmda tasvirlangan predmet nimaligi va mazkur predmet qaysi tovush bilan boshlanishini topish va tovushning bosma harfdagi variantini maxsus katakchalarga joylashtirish orqali yashirin so'zni topish vazifasini berish mumkin. (1-rasm)



b	o	d	o	m
---	---	---	---	---

1-rasm. “Katakchalarga yashiringan so‘zni top” nomli kvest usulidagi o‘yin namunasi

o'yin syujetini davom ettirish ham mumkin, masalan, guruhning qaysidir qismida “bodom” rasmi ilinganligini va uni topish lozimligi aytiladi. Bolalar rasmni topishga intiladilar va rasm orqasidagi topishmoqlarga javob beradilar. Har bir topishmoq javobini doskaga tarbiyachi yordamida yozib borishlari va yakunda

javoblarga yashiringan ertak nomini topishlari zarur. Shunday qilib pedagog o'z fantaziyasiga tayangan holda o'yin mazmunini rivojlantirishi va har bir topshiriqni keyingi topshiriqqa bog'lash orqali tarbiyalanuvchilar diqqatini barqarorlashtirgan holda qiziqarli jarayonni tashkil etishi mumkin.

Jumboqlar har bir bolani fikrlash va tasavvur qilishga majbur qiladi, yechimni topish uchun do'stlari bilan o'zaro hamkorlikka chorlaydi va noto'g'ri topilgan yechim uni ortga qaytish orqali o'z fikrlarini qayta ishlashga yo'naltiradi.

Fan va tabiat markazida kvest o'yini loyihasi mazmuni tadqiqiy faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirishda tabiiy va sun'iy olam to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni hosil qilishga e'tibor qaratiladi. Tabiatga oid bilimlarni bolalarga o'rgatish va ularni tabiatga nisbatan kuchli mehr-muhabbat tuyg'usini rivojlantirish hozirgi davrning muhim talabi hisoblanadi. Shu bois MTTda fan va tabiat markazidagi faoliyatlarni sifatli tashkil qilish orqali bolalarning ekologik madaniyatini samarali darajada tarkib toptirish mumkin.

Ekologik bilimlar berishga mo'ljallangan ta'limiy jarayonlar (atrofdagi olam bilan tanishtirish, eksperimentlar - amaliy tajriba va tabiat bilan tanishtirish)da zamon talablariga javob beradigan holda "sahnalashtirilgan", "o'yin-musobaqa", "sayohat" kabi o'yin turlariga murojaat qilish ekologik ta'limiy samaradorlikni ta'minlaydi. [8]

Biz yuqoridagi o'yin usullariga suyangan holda katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan markazda kvest usuliga asoslangan quyidagi o'yinlarni namuna tarzida taklif etishimiz:

"Doira" usuli

Bu o'yin uchun tabiat unsurlari tanlab olinadi. Buning uchun rasmlar yoki maketlardan foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolalarga daraxt rasmini ko'rsatib, bolalardan so'rashi mumkin: "Bolalar, daraxt qurib qolmasligi uchun unga nima kerak? – suv, "Unda suv tugab qolmasligi uchun nima kerak" – yomg'ir, "Yomg'ir qanday paydo bo'ladi?" –okean va dengizlardan,

"Toza manzil" o'yini

Bu o'yinning maqsadi qiyinchiliklarni yengib toza va chiroyli manzilga yetishni nazarda tutadi. Buning uchun bolalarga avvaldan teatrlashtirilgan o'yin o'tkazish maydonchasi hozirlanadi. Guruh xonasida uzun ayri yo'lak tayyorlanadi, yo'lning boshlanish qismi ifloslangan hudud, tugash qismi toza hudud qilib olinadi. Bolalar toza hududga yetib borish uchun yo'ldagi ekologik muammolarni hal etishlari zarur. Masalan birinchi yo'l kesishmasiga chiqindilar to'ldiriladi, keyingi kesishmada tutun tufayli xiralashgan yo'l (bolalar havo iflosligini yo'qotish uchun ko'chat ekadilar), keyin chiqindiga to'lgan daryodan o'tish uchun suv ustidagi baklashka va qutilarni teradilar, keyin qurib borayotgan o'simliklarni sug'oradilar.... Xuddi shu qiyinchiliklardan o'tib toza manzilga yetib boradilar.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi bolalar uchun qiziqarli va sarguzashtga boy kvestlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan markaz hisoblanadi. Markazda bolalar o'z xayollaridagi qahramonga "aylanishlari" mumkin va o'z boshlaridan turli sarguzashtlarni o'tkazishlarida barcha imkoniyatlarini qo'llay oladilar. Tarbiyachi bolalar faoliyatini kuzatish asosida ularning individual xususiyatlariga tayanib qahramonlar rollarini taklif qilishi mumkin. Muhimi faoliyat davomida syujetning qiziqarli sarguzashtlarni boshdan kechirishi zarurligiga e'tibor qaratiladi.

Hafta mavzusiga asoslangan holda kvest usulida quyidagi o'yinli ta'limiy faoliyatni tashkil etish mumkin:

“Yo'lini yo'qotgan sayyoralar” (1-jadval)

o'yin qahramonlari	Kerakli jihozlar	o'yinning borishi
“Bilimdon”, sayyoralar, oy va yulduzlar, quyosh	Lentalar, niqob uchun sayyoralar rasmi yoki maketi, bilimdon uchun achki	Kitob o'qish bilan band bo'lgan “Bilimdon” oldiga barcha sayyora, yulduzlar va oy keladi va “Quyosh bobo”ni xafa qilganliklarini aytadilar. U esa ketib qolgan va qorong'ilikda qolgan sayyoralar

		o‘z uylarini yo‘qotib qo‘yadilar. Bilimdon quyosh bobo keta turib to‘kkan ko‘z yosh tomchilari orqali uni topishga kirishadi va bu yo‘lda har bir sayyoraga turli topshiriqlarni bajarishi kerakligini aytadi.
--	--	--

1-jadval. “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi”da kvest o‘yin usuli

o‘yinining o‘ziga xos tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bolalar sahnalashtirish jarayonida “o‘zlariga noma’lum olam”ga kirish orqali xayoliy tasavvurlarini kengaytiradilar. Bajarilayotgan rol orqali syujetni ham hayotiy vazifasini tushunib boradilar va bu faoliyat jarayonida ularning dunyoqarashi yanada kengayib, fikrlash faolligi oshadi.

San’at markazida kvest usuliga asoslangan faoliyat loyihasini yaratish ham tarbiyachidan ijodiy salohiyat va kuzatuvchanlik qobiliyatini takomillashtirishni talab etadi. Haftalik mavzu doirasida faoliyatni rejalashtirish jarayonida tarbiyachi turli g‘oyalardan foydalanadi. Agar tarbiyachi kvest loyihasini yaratishda g‘oyaga boy holatda bo‘lsa (internet manbalari, didaktik materiallar) u faoliyatni kvest yo‘nalishida tashkil etishda qiynalmaydi. Misol uchun quyidagi chorlov orqali bolalarni faoliyatga qiziqtirish mumkin: “Bilmasvoy” yer sayyorasini yasashni xohlaydi, ammo uni qanday bajarishni bilmayapti. Keling, materiallarni topishga unga yordam beramiz. (bolalarga guruhdagi bor materiallardan yoki tashqi muhitdan mos predmetlarni topish vazifasi beriladi va ularga o‘zlarining tasavvurlaridagi “Yer” ko‘rinishini yaratishlariga imkoniyat beriladi. Bolalarga tarbiyachi butun shaklni yaratishda yordam berishi mumkin.

Shuningdek, “tugallanmagan tasvirlarni tugatish orqali quyonchaning tug‘ilgan kuniga kelgan mehmonlarni aniqla” yoki “qo‘lingdagi shakllarni birlashtirib mushukchani nimadan xafa bo‘lganligini top”(applikatsiya) kabi

topshiriqlar ham kvest mazmuniga ega hisoblanib, mazkur yo‘nalishdagi o‘yinlar bolani izlanishga, tadqiq etishga motivatsiyalaydi va bu orqali bola mustaqil fikrlaydi, o‘zi uchun xulosalar chiqara boshlaydi.

Qurish-yasash va matematika markazida kvest usulini qo‘llashda ketma-ketlikka asoslangan topshiriqlarni qo‘llash mumkin. Kvest usulining qiziqarliligi shundaki, faoliyat kichik voqea, ertak bilan boshlanadi va syujet qansidir muammoni yechishga qaratiladi. Mazkur yondashuv bolani faol diqqat va intilish bilan faoliyatga kirishishiga olib keladi. Tarbiyachi turli sayyoralar ko‘rinishidan kichik iz tushirilgan kosmik kemani qo‘liga oladi va bolalarga quyidagicha murojaat qiladi: “Oybek ajoyib kosmik kema yasab uni osmonga uchirdi. Kosmik kemasi uyga qaytgach uning sirtida qolgan izlarni ko‘zdan kechirgan Oybek uni qaysi sayyoralarda bo‘lganligini aniqladi. Qani, keling biz ham u kabi kosmik kemamizni qaysi sayyoralar bo‘ylab sayr qilganini aniqlaymiz”. Bolalar umumiy obyektga qaragan holda uning qismlarini topishga intiladilar va aniqlangan qismni ajratib olib uni sayyora maketiga yopishtirish orqali butunning bir qismini aniqlashni o‘rganish bilan birga, tadqiqiy faoliyat ichida o‘zlarining sayyoralar to‘g‘risidagi bilimlarini boyitish asosida mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradilar.

NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish, ya'ni o'z harakatlarini, o'yinlarini va his-tuyg'ularini anglash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish uchun kvest usulidagi o'yinlar juda samarali vosita bo'lishi mumkin. Kvestlar masalalar yoki topshiriqlarni yechish orqali bolalarni faollashtirishga, ijodiy fikrlashga va o'zgarishlarga tayyorlashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kvest usulidagi o'yinlarni qo'llashda quyidagi imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi:

1. O‘zini anglash va tahlil qilish

Kvest o'yinlari, bolalarga o'z xatti-harakatlarini va fikrlarini anglashga yordam berishi mumkin. Masalan, bolalar o'yinda ma'lum bir vazifani bajarish orqali o'z maqsadlariga erishish yo'llarini o'rganadilar. Bu jarayon, ularga o'z

qarorlarini tahlil qilish, to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajratish imkonini beradi. Bunday o'yinlar bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalashni, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni o'rgatadi.

2. Jamoaviy ish va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish

Kvest usulidagi o'yinlar, maktabgacha yoshdagi bolalarni guruhlarda ishlashga va birgalikda muammolarni hal qilishga o'rgatishi mumkin. O'yin jarayonida bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishadi, bu esa ularning ijtimoiy va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ular jamoada o'z rolini tushunib, birgalikda ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning refleksiv faoliyatini mustahkamlaydi.

3. Ijodiy va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish

Kvest o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvur qilish qobiliyatini oshirishi mumkin. O'yinlar odatda biror bir "sirni" ochish yoki "masalani" yechishni talab qiladi, bu esa bolalarga yangi g'oyalarni topishga va ijodiy yondashishga yordam beradi. Masalan, o'yinda muammoni hal qilish uchun bolalar turli xil variantlarni ko'rib chiqadilar, bu esa ularning tahliliy fikrlashini va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Hissiy intellektni rivojlantirish

Kvest o'yini bolalar uchun his-tuyg'ularni anglash va boshqarishning yaxshi vositasi bo'lishi mumkin. O'yinlar bolalarga turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini ifodalashni, boshqalar bilan empatiya o'rnatishni o'rgatadi. Masalan, o'yinda boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga yordam berish uchun to'g'ri xatti-harakatlar tanlash talab qilinadi. Bu jarayon bolalarga o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, ularga tahliliy yondashishni o'rgatadi.

5. O'z-o'zini tahlil qilish va o'zini baholash

Kvestlar orqali bolalar o'z harakatlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Masalan, o'yinda bolalar muayyan bir topshiriqni bajarishda qanday yo'l tutishlari kerakligini o'ylab ko'rishadi va o'z ishlarini baholashadi. Ular o'zlarining yutuqlarini ko'rib chiqadilar va agar biror xato qilgan bo'lsa, ularni tuzatishga

harakat qilishadi. Bu, o'z navbatida, bolalarning o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi.


6. Kognitiv rivojlanish va muammoni hal qilish

Kvestlar bolalar uchun qiziqarli va murakkab vazifalarni o'z ichiga oladi, bu esa ularning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, bolalar vazifalarni yechishda mantiqiy fikrlash, eslab qolish va strategik rejalashtirishni o'rganadilar. O'yinlar orqali bolalar turli xil topshiriqlarni yechishda o'z mantiqiy qobiliyatlarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

7. Ko'nikmalarni o'rgatish orqali o'rganish jarayoni

Kvestlar bolalarga o'rgatish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Masalan, ma'lum bir mavzu yoki tushuncha (masalan, ranglar, shakllar, hayvonlar) haqida kvest o'yinlari tashkil etilishi mumkin. Bunday o'yinlar bolalarning o'rganish jarayoniga nisbatan motivatsiyasini oshiradi va yangi bilimlarni faol tarzda o'zlashtirishga yordam beradi.

Kvest texnologiyasi asosida bolalarning kognitiv rivojlanishini quyidagi sxematik tuzilish orqali yanada aniqroq tushunish mumkin. (2-rasm)



2-rasm. Kvest o'yin loyihasini tuzish ketma-ketligi

Kvest o'yinlarni rejalashtirishda tarbiyachi bolalar qaysi sarguzashtlarni boshdan kechirishga qiziqishlarini o'z kuzatuvlari asosida aniqlashi va faoliyat hikoyasini ular qiziqayotgan syujetga yo'naltirishi mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarida bola faoliyat markazida tarbiyachi fasilitator rolini egallashi lozimligi belgilanganligini hisobga olsak, kvest usuli bu maqsadni amalga oshirishda muhim ko'makchi bo'lishi mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida - uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim "bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish" modelidan, "bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo'naltirishdir.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kvest usulidagi o'yinlar refleksiv faoliyatni rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Ular bolalarga o'z harakatlarini tahlil qilish, his-tuyg'ularini anglash, ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, jamoaviy ish va kommunikatsiya ko'nikmalarini o'rgatadi. Kvestlar asosan jamoaviy o'yin shaklida bo'lganligi bois, bolalarga o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, shu bilan birga ularning psixologik va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova. 3 bob, 4§
2. I.V.Grosheva, Sh.Sh.Mirziyoyeva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, V.A.Nazarova, M.R.Isakova, N.F.Abdunazarova "Ilk qadam" /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi. Toshkent 2022. 94 b.

3. Shin A.B., Mirziyoyeva Sh.SH., Grosheva I.B., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukaeva A.G., Vlasova E.H., Galimova E.F. "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish" Metodik qo'llanma, Toshkent, 2020 yil 21 bet
4. Xalilova N.I. Refleksiv ta'lim metodlari orqali talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi. Toshkent-2018, 8 b.
5. Толеубаева Г. Т. Педагогическая деятельность А. В. Хуторского: теория и практика // МНКО. 2016. №3 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskaya-deyatelnost-a-v-hutorskogo-teoriya-i-praktika> (дата обращения: 21.05.2025).
6. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М., 1996.
7. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. - М., 1989.
8. Olimov Q., Erhanova N., Najmitdinova M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari., (o'quv qo'llanma) Toshkent - 2023., 193 b.